



## “SHUM BOLA” ASARIDA BOLALIK HAYOTI VA JAMIYAT TA’SIRI HAQIDA MULOHAZALAR.

Sevinch Namozova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19275021>

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola G’afur G’ulomning dunyoga mashhur hisoblanmish “Shum bola” asarining badiiy tahlilini o’z ichiga olgan bo’lib. Asardagi obrazlar va ularning jamiyatdagi o’rni, iqtisodiy va ijtimoiy tuzum ahvoli, shuningdek, insonlarda shakllangan xulq-atvor va axloqning ma’naviy qiyofasi o’sha davr tuzumidan kelib chiqib tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar:** “Shum bola”, bolalik, jamiyat, hajv va haqiqat, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar.

O’zbek adabiyotida bolalar obrazini shu qadar jonli va hayotiy qilib tasvirlab bergan asarlar ko’p hisoblanadi. Shulardan biri — G’afur G’ulomning “Shum bola” qissasidir. Bu asarni o’qiganda oddiy bir sho’x bola haqida hikoya o’qiyotgandek tuyuladi, lekin chuqurroq qaralsa, unda juda ko’p ijtimoiy va hayotiy masalalar yashiringanini sezish mumkin. Menimcha, asarning eng katta yutug’i ham shunda — u oddiy voqealar orqali katta ma’noni yetkazadi. O’sha davrdagi vaziyatdan kelib chiqib qaralsa haqiqatni ochiqdan-ochiq gapirish jamiyat yuqori qatlami uchun og’irlik qilar edi. G’afur G’ulom aynan hajv bilan voqealarni kulguga o’ragan holda ularni ko’zgu sifatida xalqqa namoyish etgan. Asardagi bosh qahramon — shum bola juda qiziqarli obraz. U sho’x, gapga usta, biroz ayyorligi ham yo’q emas. Lekin uni faqat “yomon bola” yoki “tartibsiz bola” deb baholaydigan bo’lsak biz adashgan bo’lamiz. Chunki uning harakatlarini tushunish uchun uning yashayotgan muhitiga e’tibor berish kerak. U oddiy, hatto qiyin sharoitda yashaydi. Ba’zan och qoladi, ba’zan esa muammolardan chiqish uchun turli yo’llarni izlaydi. Shu sababli uning qilayotgan ishlari ko’pincha majburiyatdan kelib chiqadi.

Masalan, u ba’zi hollarda yolg’on gapiradi yoki nayrang ishlatadi. Bir qarashda bu yomon xulqdek ko’rinadi. Lekin aslida bu uning yashash uchun, turli vaziyatlardan omon chiqish uchun qilgan harakatlari hosilasini tashkil etadi. Shuning uchun o’quvchi asta-sekin uning harakatlariga boshqacha qaray boshlaydi. Hatto ba’zi joylarda unga achinadi yoki uni tushunadi. Bu esa muallifning qahramon obrazini juda tabiiy yaratganidan dalolat beradi. Aynan mana shu jihat G’afur G’ulom asarlarining ta’sirchanligiga o’zgacha jilo baxsh etadi.

Asarda ko’p joylarda ko’cha hayoti, bozor muhitlari, turli odamlar bilan uchrashuvlar tasvirlanadi. Shu orqali o’sha davr jamiyati haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, bozordagi odamlar, savdogarlar, oddiy ishchilar — bularning hammasi o’ziga xos xarakterga ega qilib berilgan. Ular orqali jamiyatdagi turli qatlamlar ko’rsatiladi. Bu esa asarni yanada hayotiy mazmun bilan boyitgan desak aslo mubolag’a bo’lmaydi. Shum bola asarining eng muhim tomonlaridan biri bu xalq hayotining tabiiy aks ettirilganligida. G’afur G’ulom xalq orasida yashagan, ularning gap so’zlarini bilgan. Shu sababli asarda ishlatilgan iboralar, gaplar juda jonli chiqqan. Misol uchun odamlar orasida “qovog’im uchib turibdi”, “ko’zim uchib ketdi” degan gaplar bor. Asarda ham aynan Qoravoyga ammasi tomonidan ushbu ibora ishlatilgan. Bu esa asar hayotiyiligini oshirgan.

Yana bir e'tibor bergan jihatim — asarda kulgili voqealar juda ko'p. Shum bolaning boshidan o'tgan voqealar ba'zan kuldiradi, ba'zan esa hayron qoldiradi. Lekin bu kulgining ortida ham ma'no bor. Yuqorida ta'kidlaganimdek, muallif kulgi orqali jamiyatdagi muammolarni ko'rsatadi. Ya'ni o'quvchi kuladi, lekin shu bilan birga o'ylab ham qoladi. Menimcha, bu yozuvchining eng katta mahoratlaridan biri.

Shum bolaning xarakteri haqida yana shuni aytish mumkinki, u juda erkin fikrlaydi. U qoliplarga sig'maydi, har doim o'z yo'lini topishga harakat, qiyin vaziyatlardan ham muammoni o'z foydasiga hal qilgan holda chiqib ketadi. Ba'zan xatoga yo'l qo'yadi, lekin baribir taslim bo'lmaydi. Bu jihati bilan u oddiy bolalarga o'xshab ketadi. Chunki bolalar ham ko'pincha xatolar orqali o'rganadi. Shu sababli shum bola obrazi o'quvchiga yaqin tuyuladi.

Asarda do'stlik va insoniy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Shum bola ba'zi odamlar bilan yaxshi chiqishadi, ba'zilar bilan esa kelisha olmaydi. Bu ham hayotdagi oddiy holat. Inson har xil odamlar bilan uchrashadi, ba'zilar bilan yaqinlashadi, ba'zilar bilan esa yo'li chiqmaydi. Asarda bu holatlar juda tabiiy tasvirlangan.

Til masalasiga keladigan bo'lsak, asar juda sodda va tushunarli tilda yozilgan. Ko'p joylarda xalqona iboralar ishlatilgan. Bu esa asarni yanada badiiylashtirib, o'qishni osonlashtiradi. Ba'zan o'qiyotganda go'yo kimdir yoningda o'tirib hikoya qilib berayotgandek bo'ladi. Aynan shu jihati uchun ham "Shum bola" ko'pchilikka yoqadi, deb o'ylayman.

Yana ta'kidlash muhim bo'lgan bir jihat borki — asarda bolalik hayoti faqat quvonchli tarzda emas, balki murakkab tomoni bilan ham ko'rsatilgan. Odatda bolalikni beg'ubor davr deb o'ylaymiz. Lekin bu asarda bolalik ham oson emasligi ko'rinadi. Shum bola boshdan kechirgan ko'rgiliklar va ularni yosh bo'lishiga qaramay bartaraf etishi alohida tahsinga loyiq. Misol uchun yosh bo'lishiga qaramay mayit yuvushiga to'g'ri kelib qolishi, kissavurlar to'dasiga duch kelishi bularning barchasi o'n to'rt yoshli bola uchun aqlbovar qilmas holatlardan hisoblanadi. Bola ham muammoga duch keladi, qaror qabul qiladi, xato qiladi. Bu esa asarni yanada hayotiy qiladi. Shuningdek, qissada turli xil kitoblar ham tilga olib o'tiladi. Jumladan, diniy kitoblar, eski maktab kitoblari haqida ham so'z yuritilgan. Muallif bu orqali o'sha davr muhitini, odamlarning bilim darajasini ifodalashni ko'zda tutgan. G'afur G'ulom serqirra ijodkorlardan bo'lgan. U nafaqat nasrda nazm va lirikada ham qalam tebratgan. E'tibor tortadigan jihati shundaki, asarda she'riy parchalar ham bor. Bu esa asarga boshqacha ruh bag'ishlaydi. Ba'zi joylarda qo'shiqlar ba'zi joylarda esa she'rlar keltiriladi. Bu holat G'afur G'ulomning aslida shoir ekanini ham namoyon etadi. Go'yoki nasr yozayotgan bo'lsada, u she'riy uslubni ham unutmaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Shum bola" asari oddiy ko'ringan bo'lsa ham, juda chuqur ma'noga ega. Unda bolalik, jamiyat, insoniylik kabi mavzular bir-biri bilan bog'langan holda berilgan. Asarni o'qigan odam nafaqat kuladi, balki o'ylaydi ham. Menimcha, aynan shu jihati uchun ham bu asar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'afur G'ulom "Shum bola" T: Toshkent. 2021
- 2.G'afur G'ulom Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi,2012
- 3.G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 10-jild. Tarjimalar
- 4.G'afur G'ulomning badiiy mahorati. Toshkent-TDIUY-2021